


## XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2018 yil yanvar-dekabr\*)


2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 272,0 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,3% ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 102,1 mln. AQSH dollarga (83,2%ga kamaygan) va import hajmi 169,9 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 127,6%) etdi. Tashqi savdo saldosi minus 67,9 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

\*dastlabki ma'lumot

**2018 yilda tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi**  
*(mln. AQSH dollar'i)*



2018 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.


**Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar**  
*(mln. AQSH dollar'i)*

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
Rossiya	77,7	41,8	35,9	28,6	145,2
Xitoy	66,7	7,9	58,8	24,5	93,5
Qozog'iston	25,4	18,6	6,8	9,3	198,4
Turkiya	18,4	9,0	9,4	6,8	170,4
Eron	17,3	10,1	7,2	6,4	63,1
Germaniya	9,7	0,4	9,3	3,6	2,6m


Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 44,0%ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 158,5%ga oshdi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 84,4%ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 56,0%ga etdi.

### Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSH dollar)

2017 yil  
yanvar-dekabr



2018 yil  
yanvar-dekabr




<b>Paxta tolasi</b>	<b>Qora va rangli metallar</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari	Mashina vaasbob-uskunalar
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	Xizmatlar
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	Boshqalar

### Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyyatiga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyyatiga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyyatiga nisbatan, %
<b>Eksport</b>	102,1	83,2	100,0	68,2	146,3	100,0	33,9	44,4	100,0
<b>Paxta tolasi</b>	11,0	20,6	10,7	0,2	158,1	0,3	10,8	20,2	31,5
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	28,4	199,4	27,8	26,6	2,1 m	26,2	1,8	87,5	5,2
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	1,0	97,6	1,3	0,6	138,7	1,4	0,4	65,9	1,2
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	0,01	-	0,01	-	-	-	0,01	-	0,02
<b>Qora va rangli metallar</b>	0,03	4,6	0,03	-	-	-	0,03	4,6	0,08
<b>Mashina va asbob - uskunalar</b>	1,4	28,4m	1,4	0,08	193,8	0,2	1,3	239,2m	4,0
<b>Xizmatlar</b>	13,9	139,6	13,6	10,5	170,4	13,4	3,4	88,7	9,8
<b>Boshqalar</b>	46,4	105,4	45,4	30,2	109,1	59,1	16,2	99,3	48,1


Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari aprel, iyul, avgust, sentyabr dekabr oylarida kuzatilgan.

## Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2018 yilda eksport qilingan tovar va xizmatlar 2017 yiluga nisbatan eksport qilingan tovar va xizmatlari 83,2%ga ko'paygan.

## 2018 yilda tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSH dollarri)



## Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSH dolları)




### Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Import</b>	169,9	127,6	100,0	51,4	178,3	100,0	117,6	113,6	100,0
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	11,5	3,8 m	6,8	5,4	2,9 m	6,4	6,1	5,0m	5,2
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	19,8	151,9	11,6	6,1	181,9	11,7	13,7	141,4	11,4

Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,2	6,5 m	0,1	0,1	-	0,1	0,05	176,1	0,04
Qora va rangli metallar	6,3	2,2 m	3,7	4,1	2,3m	6,1	2,2	2,1 m	1,9
Mashina va asbob-uskunalar	80,2	92,4	47,2	6,4	2,9 m	7,7	73,8	87,1	62,1
Boshqalar	52,0	188,7	30,6	29,1	148,6	68,1	22,9	2,8 m	19,3


Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari fevral,mart, avgust, noyabr oylarida kuzatilgan.

### Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan oyga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2018 yilda import qilingan tovar va xizmatlar 2017 yiluga nisbatan import qilingan tovar va xizmatlari 127.6%ga ko'paygan.

**2018 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat tovar va xizmatlar importida  
asosiy hamkor davlatlarning ulushi  
(mln.AQSH dollarari)**



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatga 52 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 4 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston va Turkiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 111,0 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiyl import hajmining 65,3 %ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'lumi  
Tel.:62-224-65-09**